

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MAKTABGACHA TA'LIMNING  
TUTGAN O'RNI**  
**РОЛЬ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ  
НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**  
**THE ROLE OF PRESCHOOL EDUCATION IN THE SYSTEM OF  
LIFELONG EDUCATION**

**N.T.Farmonova Zafarabod tuman**

**2-sonli MTT tarbiyachisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uzluksiz ta'lismida maktabgacha ta'limga ta'limning tutgan o'rni xaqida ma'lumotlar bayon qilingan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о роли дошкольного образования в системе непрерывного образования.

**Annotation:** This article provides information about the role of preschool education in the system of lifelong education.

**Kalit so'zlar:** Ta'limga tizimi, maktabgacha yosh uzluksiz, ta'limga tarbiya.

**Ключевые слова:** Система образования, дошкольная преемственность, образование, воспитание.

**Key words:** Education system, preschool continuity, education, upbringing.

*Maktabgacha bo'lgan yoshda bolalarning axloqiy-estetik didi shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'limga tizimini yanada kengaytirish ishlari yana jadallahadi. Kelayotgan yilda maktabgacha bo'lgan bolalarni 65 foizga, 2023 yilgacha 75 foizga ta'limga tarbiyaga qamrab olinish ishlari olib boriladi. Bu ish uchun budgetdan 600 milliard subsidiya berish hisobidan qo'shimcha 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi. 2021 yilda bolalarni maktabga tayyorlash bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 foizi qamrab olinadi. Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limga shakllari kengaytiriladi. Bunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'limga uyda berish tizimi joriy qilinadi.*

*“Kelgusi yil 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta’mirlash va moddiy texnik bazasini yaxshilash maqsadida budgetdan 2 trillion so‘m ajratiladi”, – dedi Shavkat Mirziyoev.<sup>1</sup>*

O‘zbekiston Respublikasi o‘z muastaqillagini yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning har tomonlama bilimdon, ma’naviy jismoniy jihatdan barkamol insonlar bo`lib yetishishlariga bog`liqdir. Eng avvalo, yosh avlodning ilmiy-dunyoviy bilimlar asoslarini puxta egallashi, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko`lamining hosil bo`lishi va ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun ta’lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etilishiga erishish lozim.

Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jaxonga keng yoyish, ulug` ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosimizni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, O‘zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta’mirlash, yosh avlodning komil inson bo`lib kamol topishiga bevosita bog`liqdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog`ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan e’tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo`lmay ulg`ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo`lib yetishlarini ta’mirlashdek ezgu maqsad mujassam. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to`liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg`or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzlusiz metodik xizmat ko`rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi.

<sup>1</sup>. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2020 yil 29 dekabr.

Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o`quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo’lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko’ra kuchli, bilimli dono va albatta baxtli bo’lib yashashlari shart<sup>1</sup>. Jonajon O’zbekistonimiz mustaqillikni qo’lga kiritgach har bir sohalarga o’zlarishlar yangiliklar kiritildi. Shu jumladan ta’lim soxasida bir qancha ham yangi texnika va texnologiyalarni yaratish ularni amalyotga tatbiq etish, hamda innovatsion g’oyalarni ishlab chiqish kabi bir qancha maqsadlarni oldinga qo’ydi.

Bu borada “Ta’lim to’g’risidagi” Qonunda ishlab chiqildi. 2011 – yilda Respublikamizda maktabgacha ta’lim rivojining asosiy yo’nalishlari maqsad va vazifalari, tamoyillarini o’z ichiga olgan “Maktabgacha ta’lim Konsepsiysi” ishlab chiqildi<sup>2</sup>.

O’zbekiston tarixida maktabgacha ta’limning rivojlanishi ilk bor Turkistonda dastlabki davlat bolalar bog’chalari 1918 – yilning 2 – yarmida tashkil etila boshlandi. 1920 – yilda Turkiston respublikasida 71 ta bolalar bog’chasi 1921 – yilga kelib bolalar bog’chalarining soni 105 taga yetgan bo’lsa, ikkinchi jahon urushi yillarida O’zbekistonda bolalar bog’chalari va bolalar maydonchalarining tarmog’i deyarli ikki barobar kengaydi.

Ijtimoiy sinflarning bolalar uchun 1891 – yilda “Bog’dorchilik” jamiyatini tomonidan Toshkent istirohat bog’ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun ‘Bolalar maydoncha xilida”gi birinchi bolalar bog’chalari ochildi.<sup>3</sup>

Bugungi kunda ta’lim davlat siyosatining eng ustuvor yo’nalishiga aylandi. Bu borada prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Maktabgacha ta’lim tashkiloti sohasi ochiq tan olishimiz kerakki, biz bu muhim sohadagi ishlarni e’tibordan chetda qoldirdik. Shu sohada bolalarni qamrab olish 27 % tashkil etadi. Bugungi kunda

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma’naviyat”.2016 yil 4-bet.

<sup>2</sup> Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Toshkent. “Tafakkur bo’stoni”. Toshkent.2013 yil.13-bet.

<sup>3</sup> Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Toshkent. “Tafakkur bo’stoni”. Toshkent.2013 yil. 24-27-betlar.

maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim dasturlari va o’quv tarbiyaviy rejalariga qo’yiladigan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Mutaxassislarning fikricha inson butun umri davomida olinadigan barcha ma’lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo’lgan muddatda qabul qiladi. Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Miromonovichning 2016 – yil 29 – dekabrdagi “2017 – 2021 – yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida” qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi”.<sup>4</sup> Mazkur qaror maktabgacha ta’lim tizimini moddiy - texnik bazasini mustahkamlash ularni malakali pedagogik kardlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalar tadbiq etish. Farzandlarimizni intelektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muxim hisoblanadi. Binobarin, mazkur hujjatga bog’liq maktabgacha ta’lim tizimi yanada takomillashtirilib yangi tashkilotlar qurildi. Mavjudlari rekonstruksiya qilindi, hamda mukammal ta’mirlanadi. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo’yicha tashkil qilinadigan qisqa muddatli guruhlarda o’g’il qizlarning kerakli bilimlarini egallashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek qarorda, qishloq joylarida yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan jihozlar o’quv – metodik qo’llanmalar va multimedia vositalari bilan ta’minalash nazarda tutilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish to’g’risida 2017 – yil 30 – sentabr. Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etilishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yanada kuchliroq e’tibor qaratilganligining yaqqol dalilidir. Murg’ak qalbning unib – o’sishi, har tomonlama barkamol shaxs bo’lib shakllanishi, hamda mamlakatimizning ertangi kunda o’ziga hos o’rin egallashi uchun, maktabgacha ta’lim sohasida malakali kadrlarni talab qiladi. Maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan barcha

<sup>4</sup> 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarini o’rganish bo’yicha” ilmiy uslubiy risola. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2017 yil. 193-bet

mas’ul shaxslarga yanada mas’uliyatlar yuklanadi. Maktabacha ta’lim muassasida faoliyat olib borayotgan har bir tarbiyachi o’z kasbining mohir ustasi bo’lishi hammani o’z ortidan ergashtira bilishi sog’lom raqobat muxitiga tayyorlangan holatda ish olib borishi kerak.

Zamonaviy ta’lim dasturlaridan texnika vositalaridan to’g’ri foydalana bilishini talab qiladi. Bugun bog’cha yoshidagi bolalarni ziyraklik bilan axborot texnologiyalarini o’zlashtirib olayotgani maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv tarbiya dasturlarini ilg’or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishni talab etadi. Shu kungacha mamlakatimizda bir qancha yangi maktabgacha ta’lim tashkiloti qurildi va bog’chalarni kapital rekonstruksiya qilindi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda. Ushbu dastruda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirish ularning moddiy texnik bazasini va kadrlar bilan taminlash darajasini yaxshilash ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy usullarni joriy qilish kabi keng ko’lamli vazifalarni belgilanmoqda. Jizzax viloyatida kelgusi besh yilda 135ta maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari bajariladi. Ayni vaqtda bu sohada hususiy bolalar bog’chalari faoliyatini yo’lga qoyishga ham keng imkoniyat ochib berildi. I.A.Karimov ta’lim sohasida quyidagi fikrlarga to’xtalmasdan ilojimiz yo’q. “Ta’limni tarbiyadan – tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi” bu sharqona qarash sharqona falsafadir. Zero millatimizning farqli jixati ham shundadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarini o’rganish bo’yicha” ilmiy uslubiy risola. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2017 yil. 193-bet
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2016 yil 4-bet.

- 3.Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Toshkent. “Tafakkur bo’stoni”.  
Toshkent.2013 yil.13-bet.
- 4.Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Toshkent. “Tafakkur bo’stoni”.  
Toshkent.2013 yil. 24-27-betlar.